



ZAMONAVIY O'ZBEKISTONNI YANGILANGAN QONUN USTUVORLIGI USTIGA BUNYOD ETAMIZ

Habibov Sino Sattorzoda

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti "Sharq sivilizatsiya va
falsafa" fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining yagona qonuni davlat Konstitutsiyasining avvaligi va hozirigi tarixidagi o'zgarishlar, ushbu o'zgarishlarni jamiyat hayotida tutgan o'rni, xalqimiz hayotiga olib kirgan qulayliklari, yoshlarni qo'llab quvatlash orqali jamiyatni, jamiyat orqali esa mamlakatni rivojlantirish ko'zda tutilgan ko'plab rejalarni hayotimizga tadbqiq etish kabi chora tadbirlar amalga oshirilganligini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: constitution, investetsiyalar, ilm-fan, davlat, jamiyat, fuqarolar, rivojlanish tendensiyalari, itimoiy va iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются изменения в предыдущей и современной истории Республики Узбекистан, а также удобства, которые эти изменения принесли в жизнь нашего народа. Также обсуждается развитие общества при поддержке молодежи и развитие страны через развитие общества. Будет рассмотрено, насколько многие планы были реализованы в нашей жизни.

Ключевые слова: конституция, инвестиции, наука, государство, общество, граждане, тенденции развития, социально-экономическое развитие

Abstract. In this article, changes in the previous and current history of the Republic of Uzbekistan, the changes in the previous and current history, the conveniences that these changes brought to the life of our people, development of the society through the support of the youth, and the development of the country through the society are discussed in this article. We will see if many plans have been implemented in our life.

Keywords. constitution, investments, science, state, society, citizens, development trends, social and economic development.





O'zbekiston Respublikasining bosh qonuni Konsititutsiyasi to'g'risida gap boshlar ekamiz dastlab Konstitutsiya nima u qanday ma'noni anglatishiga to'xtalib o'tamiz. Konstitutsiya so'z (lotincha: constitutio-: "tuzilish", "tuzuk") bu davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllashtirish tizimi fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Har bir davlat o'z davlatchiligiga asos solar ekan dastlab mamlakati farovonligini ta'minlash uchun ma'lum qonun qoidalar tizimiga asoslangan qonun birligi bo'lgan Konsititutsiyasiga asos soladi. Dunyoda o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lgan dastlabki davlat AQSh davlatidir. AQSh Konstitutsiyasi 1789-yilda qabul qilinadi. O'shbu Konstitutsiya ham albatta xato va kamchiliklardan xoli emasdi. Amerikaliklar uchun muqaddas hisoblangan Konstitutsiya ushbu holga kelguncha 27 marotaba o'zgartiriladi. AQSh keyin boshqa ko'plab davlatlar Fransiya, Germaniya Angliya, Italiya, Rossiya va boshqa davlatlar ham o'z Konstitutsiyalarini ishlab chiqadi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa bu bosqich 1991-yildan keyin ya'ni SSR parchalangandan so'ng boshlanadi. SSR tuzumi davrida barcha Markaziy Osiyo davlatlari yagona SSR Konstitutsiyasi asosida hayot kechirar edi. SSR parchalangandan so'ng esa har bir davlat endi o'z qonuni Konstitutsiyasiga ega bo'ladi. O'zbekiston davlatining ham yagona qonun birligi Konstitutsiyasiga ega bo'lishining sabablaridan biri sifatida qaralsa mubolag'a bo'lmaydi. Davlat mustaqilligini qo'lga kiritguncha Chor Rossiyasi qaramligi ostida kun kechirardi va fuqarolarning ham hech bir huquqlari davlat tomonidan qonuniy jihatdan qat'iy tarzda belgilanib qo'yilgan emasdi. Mustaqillik jamiyat hayotiga juda keng imkoniyatlarni ochib berdi. Davlat Konstitutsiyasining yaratilishidagi bosh sabablardan biri bo'lgan o'zbek tilining davlat tili sifatida qabul qilinishi undan so'ng mamlakat yaxlitligini saqlash, fuqarolar tinchligini taminalash, xalqning yashash tarzini yanada oshirish uchun davlat Konstitutsiyasini yaratish komissiya tuziladi. Konstitutsiyaviy komissiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini yaratilishi ustida 2,5 yil ishlaydi. Dastlabki varianti 1991 yilning oktabr-noyabr oyigacha tayyorlab bo'linadi, lekin bu loyiha hali mukammal emasligi uchun yana ham jiddiyroq va talabchanlik bilan ishlash zarur edi. 1992-yilning bahorida esa loyihaning ikkinchi varianti ishlab chiqiladi va 1992-yilning kuzida ushbu loyiha umumxalq muhokamasi uchun 2-marotaba matbuotda e'lon qilinadi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mimgdan ortiq taklif va mulohazalar beriladi. Shunday qilib mustaqil O'zbekistonning dastlabki qomusi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI





sessiyasida qabul qilinadi. Konstitutsiyani qabul qilishdan avval xalq ixtiyoriga havola etishdan maqsad haqida gapiradigan bo'lsa, bundan ko'zlangan asosiy maqsad xalqning fikrini bilish va fikrlarning xilma-xilligi orqali xalq manfaatlarini ham hisobga olgan holda yangi qonuni yaratish edi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ilgari surilgan maqsadlardan eng asosiylari xalq farovonligini taminlash, aholining sog'lomlik darajasini yanada oshirish, ayniqsa onalar va bolalar sog'lig'iga katta e'tabor qaratish, yashash dahlsizligi, uy-joy mulk dahlsizligi, erkin fikr yuritish, bepul tibbiy xizmatdan foydalanish va bepul ta'lim olish va shu kabi ko'plab huquq va majburiyatlar qat'iy belgilab berildi. Bularni buzgan har qanday shaxslar qonun oldida jazoga tortiladigan bo'ldi. O'zbekiston davlati ushbu yaratilgan Konstitutsiyadan 2023-yilga qadar foydalanib keldi. Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev hokimiyat tepasiga kelganlaridan so'ng ko'plab chora tadbirlarni amalga oshirdi shu jumladan mamlakat Konstitutsiyasiga ham o'zgartirish kiritish kerakligi haqida ilk bor 2021-yilning 7-dekabr kuni Konstitutsiyaning 29 yilligiga bag'ishlangan bayram tadbirida asosiy qonuning yangi loyihasi haqida so'z ochadi. Jumladan o'z nutqida shunday dedi: "Bugungi shiddatli davr bizdan zamonga mos harakat va o'zgarishlarni talab etmoqda. Ana shunday talabga javob beradigan mukammal Konstitutsiyaga ega bo'lish uchun Asosiy qonunimizning yangi loyihasini tayyorlashimiz, uni xalq muhokamasiga qo'yib, bildirilgan takliflar asosida takomillashtirish, ushbu muhim siyosiy hujjatni 2022-yi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30 yillik bayrami nishonlanadigan kunlarda qabul qilish, o'ylaymanki, milliy davlatchilik ananalarimizga, xalqimiz manfaatlariga munosib ish bo'ladi" deya takidlaydi. Bundan tashqari davlat rahbari Konstitutsiyaning yangi loyihasida bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik, nogironlar, keksa avlod vakillarining huquqlarini ishonchli himoya qilish masalalarini aks ettirilishi va ekologiyaga oid maxsus bob kiritilishi haqida alohida so'z yuritadi. 2023-yilning 1-may kundan e'tiboran Konstitutsiyaning yangi tahriri kuchga kiradi. Bu kunga qadar 1992-yildan buyon Konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartirish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lamining kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman olganda Konstitutsiya 65 foizga yangilandi. Konstitutsiyaning yangilanishiga zaruriyatlariga qaraymiz. Mamlakat aholisining ko'payib borishi natijasida aholining 2040-yilga borib 50 millionga yetishi, ularning yarmidan ko'pi yoshlar bo'lishi va ularga munosib sharoit yaratishda quyidagi yo'nalishlarning zarurligi. Barqaror iqtisod, samarali boshqaruv,





xavsiz davlat, ijtimoiy kafolatlar va boshqa ko'pdan-ko'p muammolar yichimi mustahkam poydevorni O'zbekistonning yangilanayotgan Konstitutsiyasini taqazo etardi. Avvalgi Konstitutsiyadan yana bir farqli jihati shunda ediki yangi Konstitutsiya matni olimlar va mutahasislar tomonidan kabinetlarda yozilmadi. Balki ,avval xalqning fikr takliflari 2bosqichda o'rganildi va shundan so'ng Konstitutsiya loyihasi tayyorlandi. Birinchi bosqichida 60 mingdan ziyod takliflar ushbu takliflarning har to'rttasidan bittasi Konstitutsiya loyihasidan joy oldi. Ikkinchi bosqichda 150 mingdan ortiq takliflarni ommaviy axborot vositalar, internet tarmoqlari orqali 5million aholimiz tanishib chiqdi. shu bilan birga 10 mingta qo'shimcha taklif, xalqaro huquqiy hujjatlar va 190 dan ortiq davlatlar tajribasi o'rganildi. Avvallari Konstitutsiya qabul qilishda dastlab loyiha ishlab chiqilib, keyin xalq muhokamasiga qo'yilgan. Yangilangan Konstitutsiya taraqqiy etgan davlat Yangi O'zbekiston qurish g'oyasi atrofida butun jamiyatni jipislashtirdi. Yangilangan Konstitutsiyaga ko'plab professor olimlar o'zlarining shaxsiy fikrlarini bayon etishdi shulardan biri Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti professori siyosiy fanlar doktori Sayfiddin Jo'rayevni fikrlariga ozgina to'xtalib o'tsak, professor Konstitutsiyaning 65 moddasiga o'zgartirish kiritilib unda farzand va bola huquqlar davlatning bu boradagi majburiyatlari tegishli normalar bilan mustahkamlab qo'yiladi va Konstitutsiyaviy qonun loyihasida farzandlar ota-onasining nasl –nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar qonun oldida tengdir degan norma kiritilgan degan qismiga professorning fikrlari quyidagicha avalambor farzand uning ta'lim olishi, jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishi har bir davlat uchun juda ham muhim. Buning uchun yoshlarmizga keng imkoniyatlarni yaratish buni oila bilan jamiyat hamkorlikda olib borishi kerak. Ba'zi bir ota-onalarimiz farzandlari tarbiysiga e'tabor bermay uning shaxsiy rivojlanishiga o'z hisalarini qo'shmayotganligini ham afsuski ko'rib turibmiz shu holatlarni oldini olish uchun farzand tarbiyasiga davlatni ham, ota- onalar ham javobgarligini qonun orqali mustahkamlab qo'yish orqali javobgarlik hissini oshirishni ko'zda tutilganligi bayon qiladi. Farzandlarimiz bizni kelajagimiz biz ularni har tomonlama rivojlantirib o'tishimiz zarur. Buning uchun esa har ikki tomonning birdek yordami zarur. Davlat farzandlarimizni rivojlanishi, intellektual fikrlaydigan yirik mutahasislar bo'lib yetishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish uchun ko'plab sarmoyalarni sarflasa ota-onalar esa ularni oiladan boshlab yaxshi tarbiyalashi, ularda vatanparvarlik, xalqparvarlik hislarini uyg'otmog'otishi ularda ilm olishga nisbatan ishonchni kuchaytirishi zarur. Shu bilan birga farzandlarimizni bilim salohiyatlarini milliy qadriyatlarimizga mos holda rivojlantirishimiz darkor.





Negaki hozirgi kunga kelib ko`plab davlatlarning rivojlanish bosqichlariga qaraydigan bo`lsak juda ko`plab davlatlarda rivojlanish jarayonida milliy qadriyatlarini yo`qolib borayotganini ko`rishimiz mumkin. Biz esa aksincha milliy qadriyatlarimizni saqlagan holda davlatimizni har bir sohasini u xoh ta`lim sohasi xoh ijtimoiy – iqtisodiy soha bo`lsin barchasini qadriyatlarmizni saqlagan holda yani o`zbekchilikka moslashtirib dunyoning rivojlangan davlatlaridan andoza olgan holda o`z davlatimizni rivojlantirishimiz eng to`g`ri yo`l desak mubolag`a bo`lmaydi. Hozirgi kunga kelib yoshlarimizning ilmiy salohiyatlari, kasbga qiziqish qobiliyatlari yuqori darja ortib bormoqda buning barchasi albatta yaratilayotgan shart -sharoitlar tendensiyasining yuqorilab borishining mevasi deyishimiz mumkin. Yana bir professor olimning yangilangan Konstitutsiyaga bildirgan fikrlarni ko`rib o`tsak, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professor olimi Rustam Xolmurodov yangilangan Konstitutsiya to`g`risida professor – o`qituvchi va olimlarga Konstitutsiyaning quyidagi farqli jihatlarini to`risida ma`lumot beradi. Xususan ,Konstitutsiyaning 25-moddasiga kiritilayotgan o`zgarishda insonning sha`ni va qadr-qimmatiga bo`ladigan xavfni oldini olish masalasini Konstitutsiya bilan mustahkamlab qo`yish lozimligini ta`kidladi. Yangilangan Konstitutsiyaga nisbatan bildirilgan bunday ijobiy fikr va mulohazalar juda ko`p bo`ldi. Bundan tashqari Konstitutsiyadagi o`zgartirishlardan eng quvonarlisi fuqarolarning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar ularning qarindoshlarini huquqlarini cheklash uchun asos bo`lishi mumkin emasligi mustahkamlandi. Bu qonuning joriy etilishi eng katta yutug` bo`ldi negaki hech bir shaxs boshqalarning ayblari evaziga o`z huquqlaridan cheklanishi, qilgan jinoyatlari evaziga badal to`lashga majbur emas. Bu ham mamlakat rivojlanishiga katta to`siq bo`ladi. Agar farzandlar ota-onalarining qilgan gunohlari orqali ko`plab huquqlardan cheklansa, shuningdek huquqiy davlat organlarida ishlash huquqlaridan mahrum bo`lishsa ular garchi yuksak ilmiy salohiyat ega bo`lsada biz ularni huquqiy davlat organlariga qabul qilmasak bilimli yoshlarimizdan ayrilib qolmaymizmi? Albatta yuqori darajadagi bilimi bo`lgan yoshlarimizdan ayrilishimiz mumkin. Bunday vaziyatlarni oldini olish uchun esa shu kabi qonunlarning ishlab chiqilishi biz uchun juda yangilik bo`ldi. Albatta yangilangan Konstitutsiya faqat shular orqaligina cheklanib qolmadi. Birinchidan mamlakat aholisining ijtimoiy holatini yanada yaxshilashladi. Ikkinchidan fuqarolarning huquqiy vakolatlarini kengaytirdi. Uchinchidan tadbirkorlar erkinlik faoliyatini ta`minlash, To`rtinchidan sud hokimiyati va advakatura mustaqilligini kuchaytirish, xalq tinchiligini taminlash kabi qonunlarni joriy etish bilan bir qatorda





O'zbekistonning jahon mamlakatlar o'rtasidagi tendensiyasini yuqori darajada o'sishiga olib kelishini ta'minlash, uni jahoning har qanday davlati bilan tenglasha oladigan darajadagi tashqi iqtisodiy tizimini yaratish shu orqali qo'shni davlatlar bilan ham iqtisodiy ham siyosiy aloqalarini yanada mustahkamlashga qaratilgan maqsadlar ham ushbu Konstitutsiya negizda shakllanishi ko'zda tutilgan va alohida e'tabor qaratilgan edi. Yana bir qonun xalqning davlat rahbariga bo'lgan ishonchi va mehrini ortishiga sabab bo'ldi. Bu qonun xorijdagi fuqarolarning ham huquqlarini himoya qilinishini ta'minlash shuningdek ularga alohida g'amxo'rlik qilish to'g'risida qonun edi. Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to'g'risidagi xalqaro huquq normalariga muvofiq g'amxo'rlik qilish belgilandi va O'zbekiston fuqarosi O'zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emasligi belgilandi. Bundan davlatning chet elda yashayotgan fuqarolarini qanchalar yaxshi ko'rishi ularga ko'rsayotgan g'amxo'rliги orqali O'zbekiston Davlatining qanchalar bag'rikengligini va davlat rahbarining fuqarolariga bo'lgan mehrini yorqin ko'rish mumkin. Amalga oshirilgan o'zgarishlardan eng kattasini esa ta'lim tizimiga qaratdi. Ta'lim tizimida qanday o'zgarishlar ro'y berganligi to'g'risida yuqoridagi sahifalarimizda ham to'xtalgan edik lekin hozir unga to'ldirish kiritmoqchiman. Bizning mamlakatimizdan bugungi kungacha juda ko'plab allomalar, qomusiy olimlar, faylas-u shoirlar, tabiblar, matematiklar va boshqa juda ko'plab allomalarimiz yetishib chiqqani to'g'risida faxrlanib gapira olamiz. Lekin hozir nega bizdan shunday buyuk mutaffakir-olimlar, sarkardalar chiqmayabdi? Chunki avvallari chegaralarni daxlsiz bo'lgani, insonlarning boshqa davlatlar hududiga o'tishi uchun hech qanday cheklavlarning bo'lmaganligi tufayli ilim izlash ko'limi juda keng miqiyosda amalga oshirilgan. Barcha buyuk allomalar-u olimlarimizning hayotlariga qaraydigan bo'lsak, ular ilmni faqat birgini tug'ilib o'sgan vatanida olish bilangina cheklanib qolishmagan. Balkim qo'shni xalqlarining madaniyatini, yashash tarzini o'rganish orqali ilmlarini yanada boyitish uchun ilm izlab yurt kezganlar, dunyoga mashhur bo'lgan ilm-fan markazlariga borib ta'lim olishgan. Shu sabali ham ularni tajribalari va bilimlari misli ko'rilmagan darajaga yetadi. Bu o'sish esa bizni xalqimizning boshqa davlatlar tomonidan tobe etilishi natijasida tor doira bilan cheklanib qolib bir qobiqdan tashqariga chiqib keta olmaganligi natijasida yurtimiz rivojlanishi bir muncha vaqtga kechikib keldi. Hozirgi kunga kelib esa yana yoshlarni ta'lim olishini kuchaytirish, ularni chet ellarda o'qitish, kichik bir dunyochada katta bir dunyoga chiqib dunyoda yuz berayotgan





o'zgarishlardan boxabar bo'lishga yordamlashish, ularni chet mamlakatlarga o'qishga yuborish orqali mamlakat iqtisodiy budjetiga keng investetsiyalarni olib kirishga yo'l ochish, shuningdek jahon fan-texnikasini o'rganib davlatga uni yanada takomillashga holda olib kirish orqali mamlakatini rivojlantirish ko'zda tutilmoqda. Shu kabi tadbirlarni birinchilardan bo'lib qo'llagan Yaponiya davlati ikkinchi jahon urishidan so'ng qisqa vaqt ichida dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin oldi. Buning asosiy sababi mamlakat budjetining teng yarmini ilm-fanni rivojlantirishga, bollar bilim darajasini oshirishga qaratganligi edi. Hozirgi kunda bizning mamlakatimizda ham xuddi shu kabi chor-tadbirlarga kuchli e'tibor qaratilishi kelgusida mamlakatimiz rivojlanishida muhim o'rin kasb etishi ko'zda tutilmoqda. Bundan xulosamiz shundan iboratki bizning Konstitutsiyamizda musthkamlanib qo'yilgan ushbu qonunlar kelgusida davlatimiz kelajagini yanada yorqinlashib borishga yo'l ochadi deya o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasining yangi tahridagi Konstitutsiyasi Toshkent.2023
- 2.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiya kitobi
- 3.Narzulla Jo'rayeva ,Akbar Zamonov O'zbekiston tarixi kitobi G'afur G'ulom nomidagi nashiriyot-matbaa ijodiy uyi 2018
- 4.O'zbekiston ovozi gazetasi
- 5.Yangiliklar 24 uztv.tv TV dasturi
- 6.Lex.uz, samdu.uz ,gazeta.uz

